



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 1

Published: 31.01.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FIZIKANI O'QITISHDA IZCHILLIK TAMOYILINI QO'LLASH

To'raev Farhodjon Farmonovich

Alfraganus University

Uzbekistan

farhodjon9618@mail.ru

Annotatsiya: Bu ishda umumiy o'rta maktablar va akademik litseylarda kvant fizikasi fanini va OTM larda kvant mexanikasi fanini izchillik prinsipi asosida o'qitish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, kvant fizikasi, kvant mexanikasi, o'qitish metodikasi, izchillik prinsipi, o'qitish metodikasi.

Аннотация: В данной работе описана методика преподавания квантовой физики в средних школах и академических лицеях и квантовой механики в высших учебных заведениях по рабочему принципу.

Ключевые слова: Непрерывное образование, квантовая физика, квантовая механика, методика обучения, принцип работы, методика обучения.

Abstract: In this paper describes the science of quantum physics in general schools and the academic lyceums, as well as the method of teaching quantum mechanics on principles consistently at universities.

Keywords: Continuing education, quantum physics, quantum mechanics, teaching methods, the principle of consistency, teaching methods.

Language: Uzbek

Citation: TURAEV, F. (2025). APPLICATION OF THE PRINCIPLE OF CONSISTENCY IN TEACHING PHYSICS IN THE CONTINUING EDUCATION SYSTEM. Universal International Scientific Journal, 2(1), 183–186. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1442>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14910281>

Google scholar: https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdr=0&C=38q+U2LKSZ-TV6ZLIM-TZBIDA-FIZIKANI-O'QITISHDA-EZCHILLIK-TAMOYILINI-QO'CVARILLASHI&af-

OTM va AL larda fizika kursining ilmiy asoslarini chuqur o'zlashtirilishi, fizika fani va uni uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida o'qitishdagi izchilligini ta'minlashni talab etadi, lekin amalda bu o'quv adabiyotlari va o'qitish amaliyotida to'la bajarilmaydi.

Zamonaviy fizika fanida fundamental qonuniyat deb tan olingan statistik qonuniyatlar ta'lim tizimidagi o'quv adabiyotlarida va fizikani o'qitishda o'zining asosiy o'rnini egallamagan. Buning asosiy sababi umumiy va nazariy fizika kurslari hamda fizika o'qitish metodikasida izchillik (preemstvennost) tamoyilining amalda qo'llanmasligi, fan o'qituvchilarining asosiy qismining ushbu tamoyilni amaliy faoliyatda qo'llashni bilmasligidadir.

Izchillik masalasiga, falsafiy kategoriya sifatida E.A.Baller tomonidan zamonaviy falsafaga mos keluvchi – “yangida, moddiy ob'ektlarning rivojlanishida, eskining, ayrim elementlarining saqlab qolinishi tushuniladi”–fikir bildirilgan. Ta'lim muassasalarida fizikani o'qitish – zamonaviy bilimlar, asosiy fizik tushunchalar, qonuniyat va nazariyalarni puxta o'zlashtirilishini hamda ularning

ta'limning turli bosqichlardagi izchilligini ta'minlashi zarur.

Izchillik tamoyilini o'quv jarayonida qo'llashda

1. Izchillikning didaktik tushuncha va tamoyil ekanligi;

2. Didaktik tatqiqotlarda “izchillik” va “umumlashtirish”, “izchillik” va “predmetlararo bog'lanish”, “izchillik” va “tizimlashtirish” tushunchalarining o'zaro bog'lanishga egaligi;

3. Izchillik tamoyilining pedagogik va didaktik tatqiqotlarda metodologik tamoyil ekanligiga asoslaniladi. Shu asosda izchillikka ta'rif beriladi: “O'qitishdagi izchillik – o'quv materialini o'qitish bosqichlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi, bilim, malaka va ko'nikmalarning bosqichma – bosqich rivojlanishidagi bog'lanishlar hamda ularning rivojlanishini ko'rsatib, ya'ni o'qitishning dastlabki bosqichidagi bilimlarning saqlanib, yangi bilimlarga tayanch sifatida qo'llanilishi hamda eski va yangi bilimlarning birlashib, yaxlit holga kelishini ifodalaydi” [1].

Talabalarga kvant mexanika kursining dastlabki boblarida Geyzenberg noaniqlik munosabatini bayon qilishda mavjud metodik qiyinchiliklar talabalarni kvantomexanik tasavvur asosida fikrlashga

o'rgatish asosida hal etiladi.

Albatta hamma talabalar ham bu muammolarni tezda engib o'taolmaydi, shu sababli o'qitishda muammoli ta'lim metodlari va boshqa zamonaviy metodlarni qo'llagan holda ko'rgazmali materiallarni kengroq tadbiq etish kerak.

OTM larda statistik qonuniyatlar umumiy fizika kursining molekulyar fizika va kvant fizikasi bo'limlarida soddaroq o'rganiladi, nazariy fizika kursining kvant mexanika va statistik fizika bo'limlarida mukammallashtirilgan holda o'rganiladi, lekin umumiy va nazariy fizikaning yuqoridagi bo'limlarining maktab, AL va OTM larda fizika kurslari bilan etarlicha bog'lanmaganligidan, yuqorida ta'kidlangan fanlardan olingan bilimlar OTM va AL larda fizikani o'qitishda talab darajasida qo'llanilmaydi.

Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun:

1. Umumiy va nazariy fizika bo'limlari o'quv materialini, shartli umumfizikaviy va kasbiy bilimlarga ajratish va o'qitishda izchillik tamoyilini qo'llash.

2. O'qitish metodikasi va berilgan materiallarning o'zlashtirilishiga oid talablar va me'zonlarni ishlab chiqish, shu asosda ta'lim oluvchilarning bilimga intilishi va faolligini tarbiyalash taklif etiladi [2].

Mikroob'ektlarning klassik korpuskulalardan keskin farqi, unda to'lqin

xususiyatlarining mavjudligi hisoblanadi, mikroob'ektning to'lqin xususiyatlari bilan noaniqliklar munosabati va undan kelib chiqadigan ko'plab natijalar bog'langan.

Mikroob'ektlarning klassik to'lqin xossalariga ega bo'lsa ham, De- Broyl g'oyalari asosida klassik to'lqindan tubdan farq qilishi ham ko'rsatiladi. Faraz qilaylik atomdagi Bor orbitasining uzunligi ga teng, bu orbitada harakatlanayotgan elektronning De- Broyl to'lqin uzunligi . Elektronning orbitasi uzunligida elektron De-Broyl to'lqin uzunligi marta joylashadi. Natijada momentning kvantlanish sharti kelib chiqadi [3, 4, 5,6].

Umuman masala echish mashg'ulotlari, o'quv mashg'ulotlaridan tashqari o'tkaziladigan seminar mashg'ulotlarida bu masalani muxokama etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fizikani o'qitishda statistik g'oya va tushunchalarni shakllantirishdagi izchillik umumiy o'rta ta'lim maktablari, OTM va AL larda yuqoridagi g'oya va tushunchalar to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlarning sifat jihatdan berilishi, OTM larda umumiy va nazariy fizika kurslarida sifat hamda miqdor jihatdan rivojlantirilishi bilan ifodalanadi. OTM larda statistik qonuniyatlar umumiy fizika kursining molekulyar fizika va kvant fizikasi bo'limlarida soddaroq o'rganiladi, nazariy fizika kursining kvant mexanika va statistik fizika bo'limlarida mukammallashtirilgan holda o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Accounts of Chemical Research Islamoglu, Goswami, Li, Howarth, Farha, and Hupp 2017.
2. Accounts of Chemical Research Jiang, Economou and Panagiotopoulos 2017.
3. D.Djankoli "Fizika 1-tom Moskva "Mir" 1989g
4. T.I. Trafimova "Kurs fiziki" 1990g
5. Sabadi P. Solnechniy dom. - M.: Stroyizdat, 1981.
6. Chakalev K.N., Sadikov J.D. Geliotexnika. 1994. №1.